

O'ZBEK ANANAVIY TO'YLARINING VILOYATLAR KESISHMASIDAGI ODATLARI VA IQTISODIY SARF- HARAJATLARI

Adham Mavlonov

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası, katta o'qituvchi.*

Safxon Mirzohidov

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali, kunduzgi ta'lim,
tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) fakulteti, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek an'anaviy to'ylarining viloyatlar kesishmasidagi odatlari va ularning iqtisodiy sarf-harajatlari tahlil qilinadi. O'zbek to'y marosimlari qadim zamonlardan beri davom etib kelgan bo'lib, har bir viloyatda o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Mamlakat hududlari bo'yicha to'y uchun sarflanadigan mablag'lar o'rtacha oylik maoshga nisbatan hisoblanib, to'y marosimlarini ixcham va kamxarajatli o'tkazish maqsadida qabul qilingan qonunlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek to'ylari, iqtisodiy sarf-harajatlar, viloyat odatlari, an'anaviy marosimlar, to'y tartibi, to'y atamasi.

O'zbek xalqi – qadimiy, o'z tili va madaniyatiga ega xalqdir. O'zFA akademigi, “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi”, “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” kitoblari muallifi Ahmadali Asqarov izlanishlari natijasida o'zbek xalqi to'liq shakllanishi antik davrda yuz bergan deb hisoblaydi.¹ Antik davr miloddan avvalgi IV va milodiy IV asrlarga to'g'ri keladi.² Antik davrdan to bugungi kunga qadar o'zbek xalqi madaniy jihatdan evolutsiya natijasida asta-sekinlik bilan rivojlandi.³ O'zbek madaniyatining o'ziga xos, boshqa millatlardan ajralib turadigan odati bu – o'zbek an'anaviy to'ylaridir. To'y — bazm tomosha va ziyofat bilan nishonlanadigan xalq marosimlarining umumiy nomi. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan ma'lumotlarga qaraganda “to'y”-atamasi turkiy so'z bo'lib, “toy” yoki “qurultoy” shaklida mo'g'ullar va chig'atoy xonlari davrida ham keng qo'llanilgan.⁴ XIV asrda Movarounnahr hududiga sayohat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta esdaliklariga asosan “toy”-bu har yili o'tkaziladigan yig'in (qurultoy) bo'lib, unda Chingizxon avlodlari, amirlar va turkey beklar, obro'li ayollar va lashkarboshi ishtirok etgan. Yakunlangan muddati 1864 yil 5

¹ <https://kun.uz/>

² Izzat Ikramovich Yuldashev (2022). ANTIK DAVR OLIMLARINING SINKRETİK QARASHLARI. Oriental Art and Culture, 3 (2), 26-31.

³ A. Mavlanov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

⁴ Mavlonov, A., & Mirzohidov, S. (2024). O'ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDA O'Z O'RINLARINI TOPISHI–KELAJAK AVLODNING POYDEVORIDIR. ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ, 3.

may bo'lgan “Tavorixi xorazmshoxiya ” tarixiy asarida uchraydigan ma'lumotga ko'ra, vazir Xasan-Murod qushbeginig o'g'li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylangan bo'lib, ziyofat-toy (to'y) bir necha kun davom etgan. Tadqiq etilgan aksariyat ma'lumotlar asosida, “to'y” –qadim zamonlardan beri doimo katta jamoa, yuqori martabali zadogonlar, katta hajmdagi yig'in, cheklanmagan miqdordagi ziyofat va dabdaba bilan uzviy bog'liq bo'lgan odatligi aniqlandi.⁵ O'zbeklarda nikoh to'yi, beshik to'yi, xatna to'yi, hovli to'yi va boshqa turdagi to'ylar o'tkaziladi. Yuqoridagi marosimlar orasida “ nikoh to'yi” o'zbek xalqi hayotida muhim jarayon kasb etadi.

O'zbek to'y marosimlari davrlar o'tishi bilan qisman o'zgarib borgan va har bir etnik guruhda o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladi.⁶ Davrlar o'tishi bilan, o'zbek xalqi bir millat sifatida shakillanayotgan bo'lsada, anana va odatlar har bir viloyatlarda o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Umumiy tarzda esa nikoh to'yi quyidagicha amalga oshiriladi:




O'zbek nikoh to'ylari hududlar kesishmasida iqtisodiy birliklarga qarab to'y harajatlari ajratiladi. “ Kun.uz” ning ijtimoiy tarmoqdagi ommaga e'lon qilgan ma'lumotlariga qaraganda 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistondagi o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 mln 551 ming so'mni tashkil etadi.

⁵ Xadicha Saydullayeva, & Akrom Ochilov (2021). O'ZBEKISTONDA TO'Y AN'ANALARI TARIXI VA BUGUNI. Academic research in educational sciences, 2 (3), 1236-1241. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00532

⁶ Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,


yanvar-dekabr



⁷ Foto: Kun.uz

O'rtacha oylik ish haqi hududlar kesimida

qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-dekabr, ming so'mda



⁸Foto: Kun.uz

Yuqoridagi iqtosidiy birliklarni qabul qiladigan bo'lsak, hududlar "To'y harajatlarini" shunga mos ravishda ajratishadi. O'rtacha qiyosiy taxminlanganda fuqorolar eng kamida 4 yillik oylik maoshini 3-4 kunlik to'y uchun sarflashadi. Quyida sarf-harajatlar tahlili:

- ▶ Namangan viloyati: $3310,6 \times 48 = 158\,908$ ming so'm
- ▶ Andijon viloyati: $3982,7 \times 48 = 191\,161$ ming so'm
- ▶ Farg'ona viloyati: $3444,9 \times 48 = 165\,355$ ming so'm

⁷ <https://kun.uz/>

⁸ <https://kun.uz/>

- ▶ Toshkent viloyati: $4526,0 \times 48 = 217\,248$ ming so'm
- ▶ Toshkent shahri: $7453,4 \times 48 = 357\,763$ ming so'm
- ▶ Surxondaryo viloyati: $3379,6 \times 48 = 162\,220$ ming so'm
- ▶ Sirdaryo viloyati : $3629,2 \times 48 = 174\,201$ ming so'm
- ▶ Jizzax viloyati: $3471,7 \times 48 = 166\,641$ ming so'm
- ▶ Samarqand viloyati: $3408,4 \times 48 = 163,603$ ming so'm
- ▶ Qashqadaryo viloyati: $3367,7 \times 48 = 161\,649$ ming so'm
- ▶ Buxoro viloyati: $3883,9 \times 48 = 186\,427$ ming so'm
- ▶ Navoiy viloyati: $5887,8 \times 48 = 282\,614$ ming so'm
- ▶ Xorazm viloyati: $3759,3 \times 48 = 180\,446$ ming so'm
- ▶ Qoraqalpog'iston Respublikasi: $3779,8 \times 48 = 181\,430$ ming so'm⁹

Yuqoridagi hisob-kitob natijalariga ko'ra **Toshkent shahri, Navoiy viloyati, Toshkent viloyati, Andijon viloyati, Buxoro viloyati** to'y uchun ajratilgan harajatlar dinamikasida yetakchilikni egallamoqda.

Mavjud vaziyatni inobatga olib O'zbekiston Respublikasining parlamenti 2019-yil 14-sentabr kuni "To'y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish" to'g'risidagi qarorni qabul qildi.¹⁰ Qarorda har xil ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida to'y hashamlar va boshqa oilaviy tadbirlarning davomiylik vaqti hamda chaqiriladigan mehmonlar soni aniq belgilandi. Shuningdek qarorda to'y marosimlarining katta xarajat talab etadigan har bir qismiga to'xtalib, asosiy e'tibor to'ylarning ixchamligi va kamxarajatli qilib o'tkazilishiga qaratilgan.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning turli viloyatlarida o'tkaziladigan to'ylar iqtisodiy imkoniyatlar va mahalliy odatlarga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari to'y marosimlari uchun ajratilgan harajatlarda yetakchilik qilmoqda, bu esa ushbu hududlardagi yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq. Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan qonun to'y marosimlarini tartibga solishga va ortiqcha harajatlarning oldini olishga qaratilgan. Ushbu choralar iqtisodiy jihatdan barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek to'y marosimlarining ixcham va kamxarajatli o'tkazilishi, kelajakda bu boradagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

⁹ Hisob – kitob taxminiy ravishda quyidagicha amalga oshirildi: $a \times b = c$. (a – o'rtacha oylik ish haqi, b – yil oyi (1 yil 12 oy bo'lsa, 4 yil = 48 oy), c – umumiy natija).

¹⁰ <https://parliament.gov.uz/>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Izzat Ikramovich Yuldashev (2022). ANTIK DAVR OLIMLARINING SINKRETIK QARASHLARI. *Oriental Art and Culture*, 3 (2), 26-31.
2. Mavlonov, A., & Mirzohidov, S. (2024). O'ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDA O'Z O'RINLARINI TOPISHI–KELAJAK AVLODNING POYDEVORIDIR. *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ*, 3.
3. Xadicha Saydullayeva, & Akrom Ochilov (2021). O'ZBEKISTONDA TO'Y AN'ANALARI TARIXI VA BUGUNI. *Academic research in educational sciences*, 2 (3), 1236-1241. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00532
4. <https://kun.uz/>
5. <https://parliament.gov.uz/>
6. A. Mavlanov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. *Science and innovation*, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818
7. Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.